

MUSULMON ME'MORLIGIDAGI ENG YAXSHI DAVR.

Tayorladi muzey ma'naviyat bo'limi hodimi

M. Davranova

Bizni qudratimizni bilmoqchi bulsangiz biz qurdirgan binolarni tomosha giling.
Amir Temur

Musulmon me'morligidagi eng yaxshi davr Amir Temur va uning avlodlari nomi bilan bogliq. Temuriylar davrida qurilish ishlari, me'morchilik misli ko'rilmagan darajada rivojlangan. Amir Temur buyuk imoratlar, masjid va maqbaralar, ulkan bog'u-roq'lar, suv inshootlari barpo etganligi bilan ham mashxur. Temur va uning avlodlari davrida Samarqand, Toshkent, Buxoro, Shaxrisabz, Qarshi, Turkiston, Hirot, Mashhad, Nishopur, Qobul va boshqa shaharlarda buyuk yaratuvchilik ishlari olib borilgandi. Albatta, Amir Temur birinchi navbatda o'z poytaxti Samarqandni dunyoning eng go'zal va obod, ko'rkam shahriga aylantirishni istar edi. Uni davrida Samarqandning dovruqi doston bo'ladi. Shaharning to'rt tomonida to'rtta darvozasi bo'lgan. Samarqandning o'zida sohibqiron hukmronligi davrida 80 ga yaqin hammom, katta 5 ta bozor bo'lgan. Xukmdor poytaxti Amir Temur

Maqbarani Amir Temurning opasi Turkon Oqo vafot etgan qizi O'ljay Shodi Mulk Oqo uchun qurdirgan, o'zi ham 1383 yili shu yerga dafn etilgan.

G'ishtdan terilgan oddiy uchta sirtqi fasad va qirrali gumbaz hech bir jihatdan kishi diqqatini tortmaydi. Ammo ularning fonidagi feruzali peshtoq nihoyatda ajralib turadi. Chamasi, me'morlarning butun e'tibori peshtoq va bino ichkarisini bezatishga qaratilgan.

Peshtoq mayda chizgilarigacha nafis qilib, qunt bilan ishlangan. Qirrali ustunlarga mayda nafis o'yma naqsh solingan va go'yo u lolasimon murakkab shaklli kursiga o'rnatilgan. Ravoq nafis o'ymakor ustunchalarga o'rnatilgan, uning yon devorlariga ajoyib o'yma pannolar qilingan. Bu bezaklarning hammasi silliq o'yma sopol bloklardan ishlangan. Pannolarning hoshiyalaridagi yozuvli «belbog'» va peshtoq toqi ustida o'ziga

xos yirik tok novdasi aks ettirilgan naqshlar solingan ravoq bor. Bino bezagida koshinga ko'proq o'rin ajratilgan. Devorlarning paneldan baland qismi koshin bilan qoplangan.

Gumbaz sopol koshinlar bilan bezatilgan. Chirmovlar gumbazni sakkiz bo'linga ajratib, eng tepasida sakkiz qirrali yulduz shaklini hosil qiladi. Maqbara Shohi Zindaning durdonalaridan biri hisoblanadi. Uni ustalardan Shamsiddin bilan Biriddin (nomlari muqarnaslarning tekis plitasiga yozilgan) va Tabriz (Eron Ozarboyjoni)dan kelgan usta Zayniddin Shamsi Tabriz birgalashib qurgan. Memorial ansambl binolari haqida batafsil ma'lumotni "O'zbekiston me'moriy epigrafikasi" turkumidan "Samarqand. Shohi-Zinda" kitob-albomidan olishingiz mumkin.

Amir Temur Samarqandni o'z saltanatining poytaxti etib e'lon qilgach, shaharda keng ko'lamli obodonlashtirish ishlari amalga oshiriladi. Xususan, 1371-1372 yillarda shaharning g'arbiy qismida 34 gektar maydonni o'z ichiga olgan Arki oliya bunyod etiladi. Temuriylar davriga oid yozma manbalarda Arki oliya ikki qator mudofaa devori bilan o'rab olinganligi, bu yerda Ko'ksaroy, Bo'stonsaroy saroylari qad ko'targanligi hamda davlat ahamiyatiga ega inshootlar - g'azna, qurol yarog', harbiy aslahalar ishlab chiqaruvchi ustaxonalar, omborxonalar, kutubxona, devonlar joylashganligi qayd etiladi.

Bo'stonsaroy arkning shimoliy qismidagi mudofaa devori yonida joylashib, asosan hukmdorning o'zi va oilasining istiqomat qilishi uchun mo'ljallangan. Ko'ksaroy esa ark markazida joylashib, to'rt qavat bo'lgan. O'z davrida yuksak darajada mahorat bilan bezalgan saroyda elchilarni qabul qilish, rasmiy marosimlar o'tkazish kabi davlat boshqaruvi bilan bog'liq ishlar amalga oshirilgan.

Arkning shimoliy-sharqiy qismida joylashgan suv manbai yer ostidan o'tkazilgan sopol quvurlar orqali qal'aning turli qismlarini suv bilan ta'minlagan. Arkning mudofaa devorlari paxsadan bunyod etilib, pastdan yuqoriga torayib borgan va har 40-60 metr oralig'ida aylana shakldagi minoralar bilan mustahkamlangan. Arkning atrofi Novadon arig'i suvlari bilan to'ldirilgan xandaq bilan o'rab olingan. Arkning janubiy tomonida Buxoro darvozasi, sharqda Samarqand darvozasi joylashgan. Asosiy darvoza Samarqand

darvozasi bo'lib, unga savdo do'konlari joylashgan "Kumush rasta" ko'chasidan Novadon arig'i ustidan tashlangan maxsus ko'priq orqali o'tilgan.

Hokimiyat tepasiga Shayboniylar sulolasining kelishi, poytaxtning Buxoro shahriga ko'chishi ma'lum darajada Samarqand shahri obodonchiligiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Xususan, XIX asrga qadar Samarqand arki va undagi inshootlar borasidagi ma'lumotlar yozma manbalarda qayd etilmaydi. Faqatgina, XVIII asr o'rtalarida Samarqand shahrining huvillab qolganligi, faqatgina arkda mingga yaqin oila istiqomat qilganligi aytib o'tiladi. Mang'it hukmdorlarining markazlashtiruv siyosati va siyosiy barqarorlik boshqa shaharlar singari Samarqandning ham nisbatan rivojlanishiga olib keladi. Xususan, arkning sharqiy tomonida Kulollar mahallasi shakllanadi. 1868 yilda Samarqand Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olingandan so'ng shahar arkida harbiy garnizon joylashtiriladi. 1868-1875 yillarda esa arkning topografik rejasi olinadi. Shu o'rinda, Sohibqiron davrida Samarqand arkida qurilgan Ko'ksaroy qachon yo'q bo'lgan, degan savol tug'iladi. Ko'ksaroy haqida yozgan tarixchilarning fikrlaricha, Ko'ksaroy bundan ikki yoki uch asrlar ilgari yo'q bo'lib ketgan. Xususan, G.Vamberi va A.Xoroshxinlar o'z esdaliklarida ta'kidlashicha, arkdagi Ko'ksaroy mang'it tomonidan Temur saroyining oldingi hashamatini tiklashga harakat qilib, yuz yillar oldin qurdirilgan.

Amir Temur arkini tadqiq etgan T.Lebedeva ham XVIII-XIX asrlarga oid madaniy qatlamlarda saroy qoldiqlarini o'rganib, Amir Muzaffar davrida bunyod etilgan saroy Amir Temur davri saroyi rejasini to'liq qaytarmasligini qayd etadi. Buxoro amirlari tomonidan qayta ta'mirlangan yoki yangitdan bunyod etilgan saroyda mashhur Ko'ktosh joylashtirilgan. XIX asrda Ko'ktosh turgan saroyning ko'rinishi bizga 1868 yili Samarqand istilosida qatnashgan rus rassomi V.Veremaginining chizib qoldirgan surati orqali ma'lum. Bu suratdan Ko'ktosh o'rnatilgan saroy to'rt burchakli bo'lib, devorning to'rt tomonida ayvon qilingan, ayvonning o'rtasi ochiq bo'lib, saroyning to'rida Ko'ktosh qo'yilgan. Saroyning ustunlari, shifti va toqi nafis naqshlar bilan bezatilgan. Ko'ktosh ustiga bunday hashamatli binoning qurilishi bu toshga bo'lgan chuqur ehtiromning ramzi ekanligini anglatgan. Zero, Temuriylar davridan boshlab, Ko'ktosh toju-taxt va hukmdorlikning

qonuniy timsoli bo‘lib qolgan ediki, Buxoro amirlari ham Ko‘ktosh ustida rasmiy o‘tirish marosimlarini o‘tkazishga harakat qilishgan.

1878 yilda rus harbiylari arkda harbiy istehkom qurish uchun dastlab ark mudofaa devorlarini tekislab tashlashgan bo‘lsa, 1880-1981 yillarda arkdagi qolgan inshootlarni buzib yuborishadi. Jumladan, Shayx Nuriddin Basir maqbarasi dastlab porox saqlanadigan omborxonaga aylantiriladi. Keyinchalik to‘liq portlatib yuboriladi. Shayx Burxoniddin Basir hoki esa Samarqand qozikaloni Said Mir Nizomiddin Xo‘ja rahbarligida Hazrati Xizr masjidining shimoliy sharqiy tomonida qayta dafn etiladi.

XIX asr oxiri - XX asr boshlarida ark hududida bir qator harbiy kazarmalar bunyod etilib, ikkinchi jahon urushida ular harbiy gospitalarga aylantiriladi. 1970 yillarda ushbu hudud qayta rejalashtirish tufayli harbiy qism boshqa joyga ko‘chirilib, 1980 yillarda bir qator ma‘muriy binolar qurilishi boshlanadi.

Aynan shu davrda ark hududida O‘zR FA Arxeologiya instituti tomonidan tadqiqot ishlari amalga oshiriladi. 1980-1982, 1986-1989 yillar davomida arkning 30 dan ziyod joyida shurf va planografik qazishma ishlari olib borilib, turli davrlarga oid inshootlar qoldiqlari aniqlanadi. Jumladan, X, XIV-XV, XVIII-XIX asrlarga oid mudofaa devori, yer osti suv yo‘li, hammomlar va ularni suv bilan ta‘minlovchi hovuzlar, turar joy (hozirgi Afrosiyob mehmonxonasi o‘rnida), xumdonlar, kanallar va boshqa inshoot qoldiqlari aniqlanadi. Afsuski, qazishmalarning aksariyati keyinchalik ularning ustiga qurilgan inshootlar ostida qolib ketadi.

Hozirgi kunda Samarqand viloyatining turizm salohiyatini yanada rivojlantirish borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Ushbu yo‘nalishdagi ishlarni yanada kengaytirish maqsadida Samarqand arkini ham turizm ob‘yekti sifatida tanitish muhim ahamiyatga ega. Zero, hozirgi kunda ark hududida saqlanib qolgan XIV-XV va VIII-XIX asrlarga oid hammom va XIV-XV asrga oid hovuz qoldiqlarini ochish va konservatsiya

qilish dolzarb vazifadir. Shu bilan bir qatorda, ark hududida ilmiy izlanishlarni reja asosida davom ettirish va uning topografiyasiga oid ma'lumotlarga aniqlik kiritish ham asosiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar

- Axmedov B. A. Amir Temur. Jizn i obshchestvenno-politicheskaya deyatel'nost' / Mukminova R. G., Pugachenkova G. A. ; pod red. Rtveladze E. V.. — Tashkent : Universitet, 1999. — 263 s.
- Yusupova M. A. K problemam izucheniya zodchestva stran Tsentral'noy Azii XVI—XVII vekov // Obshchestvennye nauki